XALQ DEPUTATLARI QUYICHIRCHIQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 18-oktabr VI-116-129-10-140-K/24 Quyichirchiq tumani

Quyi Chirchiq tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan vedeoselektor yigʻilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar maʼmuriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish boʻyicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan Yoʻl xaritasi hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan vedeoselektor yigʻilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi” maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kadastr agentligining 2024-yil 4-apreldagi Toshkent viloyati hokimligiga yuborilgan 03/08-3236-sonli hamda Respublika ayerogodeziya markazining 2024-yil 3-iyuldagi Quyi Chirchiq tumani hokimiga yuborilgan 01-1193-sonli xat orqali yuborilgan maʼmuriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Quyi Chirchiq tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasining 2024-yil 13-sentyabrdagi 1/1-25-24- sonli yigʻilish bayoni maʼqullansin.

4. Quyi Chirchiq tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasi tomonidan oʻrganib chiqilgan materiallarga asosan Quyi Chirchiq tumani bilan chegaradosh boʻlgan Chinoz, Yangiyoʻl, Oʻrta Chirchiq, Oqqoʻrgʻon tumanlari va Toshkent shahri oʻrtasidagi chegara chizigʻini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman maʼmuriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizigʻi hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yoʻl va boshqa tabiiy va sunʼiy obektlar) saqlab qolinishi boʻyicha Kadastr agentligining tuman boʻlimi boshligʻi X.Ginayatovga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Makur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining barcha oʻrinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning tasdigʻi Xalq deputatlari viloyat Kengashidan soʻralsin.

Kengash raisi

XOLMURADOV
AKMAL
ARSLANOVICH

Xalq deputatlari Quyichirchiq tumani
Kengashining
2024-yil 18-oktabrdagi
VI-116-129-10-140-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining

T A V S I F I

Toshkent shahri, Yangiyoʻl va Quyichirchiq tumanlarining chegara chiziqlari tutashgan joy, Chirchiq daryosi qirgʻogʻida joylashgan nuqta boshlangʻich 1 - nuqta deb qabul qilindi *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari41°10’02,856", sharqiy uzoqlik koordinatalari 69°13’51,083").*

A dan B gacha Toshkent shahri yerlari bilan 1 - 2 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizigʻi Chirchiq daryosidan “4R-21 Toshkent aylanma yoʻlining janub tomoni boʻylab (chegara chizigʻi ushbu yoʻl oʻqidan 32 metr masofada oʻtadi) sharqiy yoʻnalishda 2283 metr masofani oʻtib, Toshkent shahri va Quyichirchiq, Oʻrtachirchiq tumanlarining chegara chiziqlari tutashgan joy, zovur boʻyida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°09’53,190", sharqiy uzoqlik 69°15’26,804").*

B dan D gacha Oʻrtachirchiq tumani yerlari bilan 2 - 26 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

2-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 651 metr masofada ariqqa oʻtadi va ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan yoʻnalishi oʻzgarmagan holda 575 metr masofani oʻtib, keyin avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 657 metr masofani oʻtib, soʻng tomorqa devoriga tutashadi va devor boʻylab gʻarbiy yoʻnalishda 87 metr masofada ariqni kesib oʻtadi va ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 383 metr masofada qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib, ariqqa oʻtadi va ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 891 metr masofada zovurga oʻtadi va zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan umumiy gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1462 metr masoifani oʻtib, soʻngra zovurni suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 696 metr masofada zovurni kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°07’16,711", sharqiy uzoqlik 69°14’24,519").*

3-nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 813 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 1577 metr masofada zovurni kesib oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°06’24,851", sharqiy uzoqlik 69°14’49,939").*

4-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 879 metr masofani otib, keyin yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1272 metr masofani oʻtib, soʻng janubiy yoʻnalishda 568 metr masofani oʻtib, soʻngra yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy

yo‘nalishda 1077 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°04’56,753", sharqiy uzoqlik 69°13’29,895").*

5-nuqtadan chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tib, zovurga o‘tadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 336 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1019 metr masofada zovurni kesib o‘tib, so‘ng zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 455 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 438 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°05’41,548", sharqiy uzoqlik 69°13’10,890").*

6-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 963 metr masofani o‘tib, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 545 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°05’37,483", sharqiy uzoqlik 69°12’28,559").*

7-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1339 metr masofada zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 312 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 528 metr masofani o‘tib, so‘ng zovurni kesib o‘tib, zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 558 metr masofani o‘tib, Anasaur zovuri bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°05’10,385", sharqiy uzoqlik 69°10’44,171").*

8-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Anasaur zovurining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 614 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chiziq orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 19 metr masofada Anasaur zovurini va dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 547 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°05’26,427", sharqiy uzoqlik 69°10’34,603").*

9-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 992 metr masofani o‘tib, keyin janubiy yo‘nalishda 181 metr masofani o‘tib, so‘ngra zovurni kesib o‘tib, ekiner chegarasiga o‘tadi va ekiner chegarasi bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 194 metr masofani o‘tib, ekiner chegarasi bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°04’49,350", sharqiy uzoqlik 69°10’14,680").*

10-nuqtadan chegara quruq chiziq orqali g‘arbiy yo‘nalishda 115 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 158 metr masofani o‘tib, zovurga o‘tib, zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 448 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 247 metr masofada zovurni kesib o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°04’26,269", sharqiy uzoqlik 69°09’58,265").*

11-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 539 metr masofani o‘tib, keyin avtomobil yo‘li va zovurni kesib o‘tib, zovurga o‘tadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy

yo‘nalishda 732 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°04’05,694", sharqiy uzoqlik 69°10’08,001").*

12-nuqtadan chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tib, sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 522 metr masofani o‘tib, keyin zovurni kesib o‘tib, zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 595 metr masofani o‘tib, so‘ng janubiy yo‘nalishda 290 metr masofani o‘tib, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 438 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 303 metr, so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 232 metr, so‘ngra umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 177 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°03’12,847", sharqiy uzoqlik 69° 10’ 10,148").*

13-nuqtadan chegara chizig‘i avtombil yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 158 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin tomorqa chegarasi bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 67 metr, so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 536 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi va yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 78 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi, so‘ngra yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 148 metr masofani o‘tib, keyin yo‘lni kesib o‘tadi va ariqqa tutashadi, so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 112 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 356 metr masofani o‘tib ariq bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°02’44,660", sharqiy uzoqlik 69°09’49,268").*

14-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1039 metr masofani o‘tib qabiriston devoriga o‘tadi, keyin devor bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 135 metr masofada avtomobil yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 793 metr masofada zovurni kesib o‘tadi va ariqqa tutashadi, so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 232 metr masofada zovurni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°03’19,029", sharqiy uzoqlik 69°10’53,261").*

15-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1270 metr masofani o‘tib, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 711 metr masofani o‘tib, so‘ng zovurni kesib o‘tib, dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1438 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°02’54,698", sharqiy uzoqlik 69°11’08,663").*

16-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, zovurga o‘tadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1172 metr masofada ariqqa o‘tib, ariqning suv oqimi bo‘ylab umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 132 metr masofada zovurni kesib o‘tib, sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 347 metr, janubiy-sharqiy yo‘nalishda 211 metr masofada qishloq ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 171 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°02’38,462", sharqiy uzoqlik 69°12’19,967").*

17-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, omborxona devoriga o‘tadi va devor bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 56 metr masofada zovurga o‘tib, zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-sharqiy

yo‘nalishda 85 metr masofada zovurni kesib o‘tib, zovurning suv oqimi bo‘ylab, janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 115 metr masofani o‘tib, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 847 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°02’49,704", sharqiy uzoqlik 69°12’46,285")*.

18-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 523 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°02’34,243", sharqiy uzoqlik 69°12’55,377")*.

19-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1535 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1134 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°01’25,303", sharqiy uzoqlik 69°11’52,800")*.

20-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 205 metr masofada zovurga o‘tadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 1376 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°01’15,638", sharqiy uzoqlik 69°11’01,694")*.

21-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1329 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°00’44,613", sharqiy uzoqlik 69°11’41,142")*.

22-nuqtadan chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tib, zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 485 metr masofani o‘tib, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 927 metr masofani o‘tib, so‘ng shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 316 metr masofani o‘tib, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 529 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°00’22,838", sharqiy uzoqlik 69°10’19,187")*.

23-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 245 metr masofani o‘tib, keyin zovurni kesib o‘tib, umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 364 metr masofani o‘tib, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 878 metr masofada avtomobil yo‘li va kanalni kesib o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°59’50,659", sharqiy uzoqlik 69°10’52,844")*.

24-nuqtadan chegara chizig‘i kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 101 metr masofani o‘tib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 153 metr masofada Qorasuv daryosiga tutashadi va daryoning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2640 metr masofani o‘tib, so‘ng janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 345 metr masofani o‘tib, so‘ngra Qorasuv daryosini kesib o‘tib, ariqqa tutashadi va umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 339 metr masofada zovurni kesib o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°58’25,131", sharqiy uzoqlik 69°09’53,927")*.

25-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 850 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin

chegara bo‘ylab umumiy sharqiy yo‘nalishda 299 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi, so‘ng yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 683 metr masofani o‘tib, Quyichirchiq, O‘rtachirchiq va Oqqo‘rg‘on tumanlarining chegara chiziqlari tutashgan joy, Ohangaron daryosi qirg‘og‘ida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°58’16,043", sharqiy uzoqlik 69°10’21,017").*

D dan E gacha Oqqo‘rg‘on tumani yerlari bilan 26 - 37 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

26-nuqtadan chegara chizig‘i Ohangaron daryosining suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5795 metr masofani o‘tib, Qorasuv daryosini quyilishida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°57’01,255", sharqiy uzoqlik 69°07’16,407").*

27-nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali janubiy yo‘nalishda 114 metr masofada Ohangaron daryosini kesib o‘tib, keyin daryoning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2133 metr masofani o‘tib, so‘ng daryoning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5744 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°54’22,724", sharqiy uzoqlik 69°03’42,661").*

28-nuqtadan chegara chizig‘i Ohangaron daryosining suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1182 metr, keyin umumiy yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda barcha burilishlarni hisobga olib 3255 metr masofada avtomobil yo‘li ko‘prigiga o‘tadi, so‘ng ko‘prikning shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 14 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li ko‘prigi bo‘yida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°53’00,647", sharqiy uzoqlik 69°01’27,405").*

29-nuqtadan chegara chizig‘i ko‘prikdan Ohangaron daryosiga o‘tadi, keyin daryoning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2184 metr, keyin umumiy g‘arbiy yo‘nalishda 2996 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°51’47,741", sharqiy uzoqlik 68°58’57,854").*

30-nuqtadan chegara chizig‘i Ohangaron daryosining suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bila umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1352 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 301 metr, so‘ng umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 322 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°51’49,862", sharqiy uzoqlik 68°57’59,078").*

31-nuqtadan chegara chizig‘i Ohangaron daryosining suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bila umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1450 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 410 metr, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1982 metr masofani o‘tib, R-24 avtomobil yo‘li ko‘prigi bo‘yida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°50’50,958", sharqiy uzoqlik 68°56’06,808").*

32-nuqtadan chegara chizig‘i R-24 avtomobil yo‘li ko‘prigini kesib o‘tib, Ohangaron daryosiga o‘tadi va daryoning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 620 metr masofani o‘tib, keyin janubiy yo‘nalishda 1078 metr masofani o‘tib, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy

yo‘nalishda 552 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°49’57,736", sharqiy uzoqlik 68°56’07,506").*

33-nuqtadan chegara chizig‘i Ohangaron daryosining suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bila umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1195 metr masofani o‘tib, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 1092 metr masofani o‘tib, qaryo qirg‘og‘ida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°49’30,417", sharqiy uzoqlik 68°54’58,215").*

34-nuqtadan chegara chizig‘i Ohangaron daryosining suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 859 metr masofani o‘tib, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1456 metr masofani o‘tib, qaryo qirg‘og‘ida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°48’50,464", sharqiy uzoqlik 68°53’59,948").*

35-nuqtadan chegara chizig‘i Ohangaron daryosining suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 672 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1228 metr, so‘ng umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1241 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘i bo‘yida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°49’00,190", sharqiy uzoqlik 68°52’56,193").*

36-nuqtadan chegara chizig‘i Ohangaron daryosining suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1613 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 774 metr, so‘ng umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 3932 metr masofani o‘tib, Sirdaryo viloyati va Quyichirchiq, Oqqo‘rg‘on tumanlarining chegara chiziqlari tutashgan joy, Sirdaryo daryosi o‘zanida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°47’28,511", sharqiy uzoqlik 68°50’23,716").*

E dan F gacha Sirdaryo viloyati yerlari bilan 37 - 38 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

37 - nuqtadan chegara chizig‘i Sirdaryo daryosning o‘zani va suv oqimi bo‘ylab umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 26186 metr masofani o‘tib, Sirdaryo viloyati Quyichirchiq, Chinoz tumanlarining chegara chiziqlari tutashgan joy, Chirchiq daryosi quyilishida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°53’56,297", sharqiy uzunlik 68°42’22,240").*

F dan G gacha Chinoz tumani yerlari bilan 38 - 42 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

38 - nuqtadan chegara chizig‘i Sirdaryo daryosning o‘zanidan Chirchiq daryosiga o‘tadi va umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Chirchiq daryosining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3241 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1307 metr, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 3957 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2490 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°55’56,035", sharqiy uzunlik 68°48’49,184").*

39 - nuqtadan chegara chizig‘i umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Chirchiq daryosining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2284 metr masofada daryoni kesib o‘tadi, keyin yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3046 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°56’46,926", sharqiy uzunlik 68°51’24,766").*

40 - nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Chirchiq daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3391 metr, keyin sharqiy yoʻnalishda 3815 metr masofani oʻtib, daryo qirgʻogʻida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°57’43,294", sharqiy uzunlik 68°55’15,567").*

41 - nuqtadan chegara chizigʻi umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Chirchiq daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1416 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 3234 metr masofani oʻtib, soʻngra toʻgʻri chiziq orqali shimoliy yoʻnalishda 117 metr masofada Chirchiq daryosini kesib oʻtib, Quyichirchiq, Chinoz va Yangiyoʻl tumanlarining chegara chiziqlari tutashgan joy, daryo qirgʻogʻida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°58’47,905", sharqiy uzunlik 68°56’56,692").*

G dan A gacha Yangiyoʻl tumani yerlari bilan 42 - 1 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

42 - nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy yoʻnalishda Chirchiq daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2279 metr masofani oʻtib, Chirchiq daryosi qirgʻogʻida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°58’49,897", sharqiy uzunlik 68°58’21,261").*

43 - nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Chirchiq daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2746 metr, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2551 metr masofani oʻtib, daryo qirgʻogʻida joylashgan 44-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°00’34,645", sharqiy uzunlik 69°00’55,415").*

44 - nuqtadan chegara chizigʻi umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Ohangaron daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan 1527 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1382 metr masofani oʻtib, daryo qirgʻogʻida joylashgan 45-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°01’20,645", sharqiy uzunlik 69°02’20,322").*

45 - nuqtadan chegara quruq chiziq orqali shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 169 metr masofada Ohangaron daryosi oʻzaniga tutashadi va oʻzan boʻylab umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda daryoning suv oqimiga qarshi 2058 metr masofani oʻtib, keyin dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 298 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°02’13,546", sharqiy uzunlik 69°03’13,588").*

46-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2282 metr, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 2134 metr, soʻng sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 2817 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°04’22,258", sharqiy uzoqlik 69°07’27,211").*

47-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan Chirchiq daryosiga oʻtadi va umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda daryoning suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻI bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 421 metr masofani oʻtib, keyin toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 281 metr masofada Chirchiq daryosini kesib oʻtib, daryo qirgʻogʻida joylashgan 48-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°04’38,053", sharqiy uzoqlik 69°07’36,120").*

48 - nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Chirchiq daryosining suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2671 metr masofani oʻtib, daryo qirgʻogʻida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°05’26,866", sharqiy uzunlik 69°08’56,189").*

49 - nuqtadan chegara chizigʻi umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Chirchiq daryosining suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2208 metr masofani oʻtib, daryo qirgʻogʻida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°06’26,763", sharqiy uzunlik 69°09’17,196").*

50 - nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Chirchiq daryosining suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2400 metr masofani oʻtib, daryo qirgʻogʻida joylashgan 51-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°07’29,962", sharqiy uzunlik 69°10’09,820").*


51 - nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Chirchiq daryosining suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3199 metr, keyin umumiy yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda 1116 metr masofani oʻtib, daryo qirgʻogʻida joylashgan 52-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°09’03,882", sharqiy uzunlik 69°12’19,520").*

52 - nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali janubiy-sharqiy yoʻnalishda 228 metr masofada Chirchiq daryosini kesib oʻtib, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Chirchiq daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan 2967 metr masofani oʻtib, boshlangʻich 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°10’02,856", sharqiy uzunlik 69°13’51,083").*

Xalq deputatlari Quyichirchiq tumani
Kengashining
2024-yil 18-oktabrdagi
VI-116-129-10-140-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Xalq deputatlari Quyi Chirchiq tumani
Kengashining 2024-yil ___-_____dagi
_____ - sonli qaroriga
2-ilova

Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining kartografik CHIZMASI



Shartli belgilar:

Quyi Chirchiq tumani ma'muriy-hududiy chegara chizig'i

1 *Quyi Chirchiq tumani ma'muriy-hududiy chegarasining burilish nuqtasi va raqami*